

OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

“Jahon siyosati” kafedrası

“JAHON SIYOSATI” fanidan

“YEVROPADA INTEGRATSION JARAYONLARNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI”

mavzusidagi

KURS ISHI

Bajardi: 3- kurs ingliz-urdu guruhi talabasi

Ikromov M.

«___»_____ 2013

• Ilmiy rahbar: Mustapova H.

«___»_____ 2013

Toshkent-2013

Mundarija

KIRISH.....	3
1-BOB. YEVROPADA INTEGRATSION JARAYONLARNING VUJUDGA KELISH TARIXI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI....	5
1.1. Yevropada integratsion jarayonlarning vujudga kelish tarixi va asosiy bosqichlari.....	5
1.2. Yevropa integratsion jarayonlarining chuqurlashuvi va bugungi kundagi ahamiyati.....	9
2-BOB. YEVROPA ITTIFOQI – XALQARO INTEGRATSIYANING OLIY SHAKLI.....	14
2.1. Yevropa ittifoqi strukturasi, faoliyati va jahon hamjamiyatida tutgan o'rni.....	14
2.2 Yevropa ittifoqi-O'zbekiston munosabatlari.....	18
XULOSA.....	27
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	28

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi yillarda jahon sahnasida voqealar tendensiyasi rivoji shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunimizda global raqobatdan chetda turish, turli xalqaro tahdidlardan saqlanish faqatgina integratsiyalashuv doirasidagina kechishi mumkin. Shu jihatdan, mening fikrimcha hozirgi paytda turli integratsion birlashmalarning xalqaro munosabatlarda dadil faoliyat yuritishi ham ana shu sababdandir. Ular xalqaro siyosat aktorlari orasidan eng progressivi – bu albatta Yevropa Ittifoqi bo'lib, uni Yevropadagi integratsion jarayonlarning institutsional tuzilmasi va dunyodagi integratsion tashkilotlarning eng oliy shakli deyishimiz mumkin. Darhaqiqat, ikkinchi jahon urushidan so'ng, Yevropada integratsion jarayonlarning kuchli silsilasini kuzatdik va bu borada har qanday mintaqa ushbu qit'adan o'rnak olsa arziydi.

Shu bilan birga bugungi kunda kechayotgan zamonaviy xalqaro jarayonlarda ushbu integratsion jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish har bir xalqaro siyosatshunos uchun dolzarb masalalardandir. Zero uning bugungi kundagi ahamiyati mintaqaviy o'lcham bilan baholanmaydi. Avvalboshda mintaqaviy tuzilma sifatida shakllangan Yevropa Ittifoqi hozirda xalqaro integratsiyaning eng oliy shakli sifatida ko'riladi hamda uning jahon sahnasidagi roli va faoliyati keng ta'sirga egadir. Bu esa o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini oshiradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Yevropada integratsion jarayonlarning vujudga kelishi tarixi va sabablari, uning bugungi dunyodagi sezilarli ahamiyati borasidagi tadqiqotlar XX asr ikkinchi yarmidan beri olib borilmoqda. Bu borada g'arb, AQSh va rus olimlari ayniqsa samarali faoliyat yuritganlar. Mustaqillikdan so'ng esa yurtimizda X.T.Odilqoriyev¹, H.Yunusov va boshqa olimlar tomonidan Yevropada integratsion jarayonlarni o'rganish borasida tadqiqotlar o'tkazilgan.

¹ Одилқориев Х.Т., Раззоков Д.Х. Сиеятшунослик, - Тошкент, 2007. 295 В.

Kurs ishining maqsadi va vazifalari. Mazkur kurs ishidan ko'zlangan maqsad Yevropada integratsion jarayonlarning yaratilish tarixi, Yevropa ittifoqi va uning bugungi kundagi ahamiyatining nazariy jihatlarini o'rganishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Yevropada integratsion jarayonlarning vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va sabablarini tahlil qilish;
- Yevropada integratsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va uning bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qilish;
- Xalqaro huquqshunos olimlarning asarlari va Yevropa ittifoqining amaliy faoliyati yordamida ushbu tashkilotning tuzilishi, organlar tizimi va vakolatlarini o'rganib chiqish;
- Jahon hamjamiyatida Yevropa ittifoqi va O'zbekiston munosabatlarini o'rganish.

Kurs ishining obyeksi. Kurs ishining obyeti sifatida Yevropada integratsiya jarayoni shakllanish tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyatini o'rganish mavzusi tanlab olindi.

Kurs ishining predmeti. Yevropada integratsion jarayonlar yaratilish tarixi, uning institutsional ko'rinishi – Yevropa ittifoqining bugungi kundagi ahamiyati va faoliyatini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Kurs ishining nazariy metodologik asoslari. Mazkur kurs ishiga ilmiy jihatdan yondashishda xalqaro siyosiy-huquqiy xujjatlarga, Prezident I.A Karimov asarlariga hamda vatandosh va xorijiy olimlarning ilmiy nazariy qarashlariga tayaniladi.

Kurs ishining tuzilishi va hajmi. Kurs ishi kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

1-BOB. YEVROPADA INTEGRATSION JARAYONLARNING VUJUDGA KELISH TARIXI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

1.1. Yevropada integratsion jarayonlarning vujudga kelish tarixi va asosiy bosqichlari

Bevosita XX asrning 2-yarmida Yevropa integratsiyasi natijasida vujudga kelgan va hozirgi davrda dunyo siyosiy va iqtisodiy hayotida o'ziga xos o'rin tutayotgan YI ning paydo bo'lish tarixi va sabablariga nazar tashlaydigan bo'lsak, Yevropa davlatlarining iqtisodiy, siyosiy va harbiy birlashuvi haqidagi dastlabki fikrlar XIII-XIV asrlarda vujudga kelgan. Yevropa davlatlari orasida ittifoq tuzish haqidagi dastlabki fikrlar fransuz prokurori Pier de Buy va chex qirolu Ioann Podebradlarga tegishli bo'lsa, fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo, ingliz olimlari Villiam Penni, Jon Beller va nemis faylasufi Immanuel Kantlar bu fikrning rivojlanishida o'ziga xos xissalarini qo'shishgan.

G'arbiy Yevropada integrallashuvga urinish birinchi marta 1948 yida bo'lib o'tgan, bunda "Marshall rejasi"ni amalga oshirishni osonlashtirish uchun AQSh tomonidan qo'llab-quvvatlangan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tuziladi. Ammo bu tashkilot yetarli iqtisodiy o'sishni ta'minlay olmagan uchun hamkorlikning yangi tizimi shakllana boshlandi. Taniqli fransuz ilmiy maktabi konsepsiyasiga binoan halqaro munosabatlar sohasidagi "umumiy bozor" o'z ichiga quyidagilarni olishi kerak edi:

1. Tovarlar, kapital va odamlarning iqtisodiy erkin ko'chib yurishini ta'minlashi;
2. Turli mamlakatlarning iqtisodiy sohasidagi siyosatlarini uyg'unlashtirish;

3. Umumiy tashqi ixtisoslashuvning vujudga kelishini ta'minlashidan iborat edi².

1951 yil 18 aprelda Fransiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya va Belgiya ushbu Yevropada ko'mir va po'lat quyish birlashmasi (YKPB) ittifoqini tashkil qilish borasida kelishuvni imzolaydilar. Bu Yevropa integratsiyasiga qo'yilgan dastlabki tamal toshi edi³.

1955 yil iyun oyida Italiyaning Messsina shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda YKPBga a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari «Birlashgan Yevropani yaratish» taklifi bilan chiqishdi. Messinada bo'lib o'tgan konferensiyada YKPB ga a'zo davlatlar orasida iqtisodiy integratsiyaga qadam qo'yishga kelishib olindi. Belgiya tashqi ishlar vaziri Pol Anri Spaak boshchiligida Yevropa Atom Energiyasi bo'yicha Hamjamiyati va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tuzish bo'yicha qo'mita tuzildi. Olib borilgan muzokaralar natijasida ushbu qo'mita 1956 yil o'z faoliyatini yakunlab, 1957 yil mart oyida YKPBga a'zo 6 ta davlat tomonidan imzolangan va 1958 yil 1 yanvarda kuchga kirgan Yevropa Atom Energiyasi bo'yicha Hamjamiyati va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tuzishga asos bo'lgan shartnomani ishlab chiqishga erishdi⁴. Yevratomning tashkil etilishi unga a'zo davlatlar orasida tinch maqsadlarda foydalanish uchun yadroviy energetika sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tashkil qilish Yevropa davlatlarining iqtisodiy jihatdan birlashishini anglatar edi. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tashkil etishdan asosiy maqsad kelgusida Yevropa davlatlarining siyosiy integratsiyasiga zamin yaratish edi. Yevratomning tashkil etilishi esa bu boradagi dastlabki ishonchli qadam edi.

² <http://uz.denemetr.com/docs/134/index-21111-1.html?page=4>

³ http://europa.eu/about-eu/basic-information/index_en.htm

⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa_Ittifoqi

Shu munosabat bilan Yevropa Ittifoqidagi integratsiya jarayonlari mobaynida to'plangan tajriba muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash o'rinlidir. Mazkur ittifoqning 50 yillik taraqqiyoti davrida to'rtta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular integratsiya jarayonining samaradorligi va tashkiliy shakllari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Birinchi bosqich - 1950 yillarning boshlarida YI tashkil topgan vaqtdan buyon to 1970 yillarning boshigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ana shu davr mobaynida YI qatnashchilari bojxona ittifoqini yaratishga muvaffaq bo'ldilar (ana shu davr mobaynida o'zaro savdodagi soliqlar bekor qilindi, tarif bobidagi cheklashlarning miqdoriy turi va boshqa bir qancha turlari bekor qilindi)⁵.

YIga a'zo bo'lgan mamlakatlarda 1964 yilda qabul qilingan yagona qishloq xo'jaligi siyosati katta samara berdi. Mazkur siyosat ushbu mamlakatlarning ichki ishlab chiqarishini ko'tarishga imkon berdi. Ular mahsulotning eng muhim turlari bilan o'z aholisini ta'minlay boshladi va shu tufayli uchinchi mamlakatlardan import kamaydi.

1970 yillarning boshida Yevropa Ittifoqida tamoman yangi vaziyat tarkib topdi. Bu integratsiyaning ikkinchi bosqichi boshlanganidan dalolat berar edi.

1970 yillarning boshida sodir bo'lgan valyuta - moliya va yonilg'i xom ashyo tangliklari Yevropa Ittifoqida integratsiyani chuqurlashtirish jarayonini amalga oshirishni mushkullashtirdi. Ba'zi yo'nalishlarda, masalan, sarmoyalar harakatini erkinlashtirish bobida orqaga chekinish ham sodir bo'ldi. YIga a'zo bo'lgan mamlakat o'rtasida byudjet moliya masalalari xususidagi ixtiloflar kuchaydi. Yevropa Ittifoqiga endigina a'zo bo'lgan mamlakatlar, ayniqsa, Buyuk Britaniya, muammolarni birgalikda bartaraf etish bobida YIga tarkib topgan ayrim tamoyillarni o'zgartirishga zo'r berib harakat qildilar⁶.

⁵ Introduction to European Union. P. 5.

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_integratsiya

Kurslarni tartibga solishdagi bu tizimda YVB (Yevropa valyuta birligi) markaziy mavqeni egalladi, YVB YIga a'zo bo'lgan mamlakatlar valyutalari rasmiy kurslari hisob-kitobi uchun hamda ana shu valyutalar bozor kurslarining harakatini nazorat qilib turish uchun negiz bo'ldi. Shu taxlit boshqarish, shuningdek, valyuta bozorlaridagi Markaziy banklarning an'anaviy intervensiyasi yo'li bilan ham ayrim valyutalar kursini bevosita YVBga nisbatan boshqarish ham amalga oshirildi. YVB hisob-kitob, to'lov va zaxira vazifalarini juda cheklangan miqyosda va valyuta munosabatlarining ancha tor sohalarida bajardi. Bu esa ilmfan yutuqlari keng ko'lamda qo'llaniladigan tarmoqlar taraqqiyotidagi qoloqlikni yana ham chuqurlashtirdi, Umuman xo'jalik ravnaqining sekinlashuviga olib keldi. Yevropa Ittifoqining mustaqil kuch sifatida qaror topishini mushkullashtirdi.

Uchinchi bosqich. 1980 yillarning o'rtasiga kelib Yevropa Ittifoqi o'z ravnaqining qaltis dovoniga yetib keldi. Jahondagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat tez o'zgarib boraetgan bir sharoitda Hamjamiyat oldida bir qancha murakkab muammolar ko'ndalang bo'ldi. Bular G'arbiy Yevropa sanoatining raqobatbardoshligini ko'tarish zarurati bilan hamda AQSH va Yaponiyadan texnologik jihatdan orqada qolishini bataraf etish bilan bog'langan edi. Yevropa Ittifoqini turg'unlikdan chiqarish maqsadida qator chora-tadbirlar ko'rish uchun YIga a'zo bo'lgan mamlakatlarning hukumatlararo konferensiyasi chaqirildi. Konferensiyada yagona Yevropa hujjati (YaYH) imzolandi, Bu yangi hujjat o'z ahamiyati jihatidan Yevropa Hamjamiyatini ta'sis etish to'g'risidagi muhim hujjatlarga tenglashtirdi. YaYH mazkur Hamjamiyatga a'zo bo'lgan 12 mamlakatning milliy parlamentlari tomonidan ratifikatsiya qilindi va 1987 yilning 1 iyulidan boshlab amal qila boshladi.

YaYHning imzolanishi G'arbiy Yevropada integratsiyaning ravnaq topishida yangi bosqich bo'ldi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: yagona ichki bozorni shakllantirishni yakunlash, integratsiya doirasini kengaytirish (uni fan va texnikaga joriy etish, valyuta munosabatlari, atrof-muhitni muhofaza etish)

hamda Yevropa Ittifoqining millatlar doirasidan chiqib ketishini kuchaytirish. Integratsiya jarayoniga tashqi siyosat masalalarining ham qo'shilishi mazkur bosqichning sifat jihatdan yangi unsuri bo'ldi. Bu esa Yevropa Ittifoqini mustaqil "siyosiy birlikka" aylantirish tendensiyasini kuchaytirdi.

YI taraqqiyotining to'rtinchi bosqichida valyuta integratsiyasi jarayoniga jo'shqinlik baxsh etishga yana bir karra urinish bo'ldi, 1990 yilning dekabr oyida Rim shahrida bo'lib o'tgan YIga a'zo bo'lgan mamlakatlarning hukumatlararo konferensiyasida iqtisodiy va valyuta ittifoqi to'g'risidagi Bitimni tayyorlashga qaror qilindi. Ana shu hujjatning qabul qilinishi YIga a'zo bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotini yanada mustahkam muvofiqlashtirib turishga, barcha valyutalarning Yevropa valyuta ittifoqiga to'la-to'kis qo'shilishiga, hamjamiyat Markaziy banklari boshqaruvchilari qo'mitasi huquqlarining kengayishiga imkon berdi. Ana shu bitim asosida Markaziy banklarning Yevropa tizimi (MBYT) tuzildi. Bu tizim biror-bir mamlakat boshqaruvi milliy idoralarida batamom mustaqildir va Yevropa Ittifoqi valyuta va bank sohalarini tartibga solib turadi. Bundan tashqari, ushbu bitimga ko'ra qat'iyat bilan belgilab qo'yilgan valyuta kurslariga o'tish, Yevropa Ittifoqining yagona valyutasi yevroga o'tish hamda YIga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarning oltin-valyuta rezervlarini Yevropa Markaziy banki (Mayndagi Frankfurt shahri, Germaniya) nazoratiga berish nazarda tutilgan edi.

1.2. Yevropa integratsion jarayonlarining chuqurlashuvi va bugungi kundagi ahamiyati

Agarda, Yevropa integratsiyasining tarixda va hozirda tutgan o'rni haqida fikr yuritadigan bo'lsak, uning eng muhim vazifasi tinchlikni saqlash ekanligiga amin bo'lamiz. Hozirda, Yevropa integratsiyasining nima maqsadda paydo bo'lganligi unutilib, uning faoliyati faqatgina Yevropa aholisining faravon va baxtli hayot

kechirishiga qaratilgan degan fikr paydo bo'lgan. Bunday fikrning paydo bo'lishiga dunyo aholisining YIning ko'zlagan asosiy maqsadlarini oxirigacha tushunib yetmasligi, uning tashkilotlarida qabul qilinayotgan qaror va qonunlar Yevropa aholisining hammasining manfaatlarini o'zida aks ettira olmaganligida bo'lsa kerak. Ammo, bu tashkilotning nafaqat Yevropa qit'asi uchun, balki butun jahon hamjamiyatida insoniyat hayot jabhasining har bir sohasida muhim o'rin tutishi hammaga ayon. Demak, Yevropa integratsiya jarayoni nafaqat Yevropa aholisini, balki butun dunyo aholisining bugungi va kelajakdagi taqdirida muhim ahamiyat kasb etishini unutmazlik lozim.

Yevropadagi integratsion jarayonlarning kengayishi mumkinligi va hattoki zarurligi 1957 yil Rim shartnomasida mutahkamlangan. 1973 yilda Yevropa integratsiyasida dastlabki kengayish yuz berdi. Yevropa integratsiya jarayoniga Angliya, Irlandiya va Daniya qo'shildi⁷. Angliyaning YIHga qo'shilish uchun 1961, 1965 va 1967 yillardagi harakatlari Fransiya prezidenti Sharl de Gollning tashabbusi bilan Fransiya tomonidan Angliyaning a'zoligiga veto qo'yilganligi sababli omadsizlikka uchradi. Sharl de Gollning bu harakatlarining ham o'ziga yarasha sabablari bor edi. U Angliyani doimo Yevropadan geografik jihatdan ajralib turganligi va ko'p holatlarda AQSH siyosatiga yon bosishini ro'kach qilib, agarda YeHga a'zo bo'lsa bu Yevropa integratsiyasiga putur etkazadi deb hisoblar edi.

YI kengayishining barcha bosqichlarida Fransiya bu jarayonni butun Yevropani qamrab olmog'i lozim deya qo'llab - quvvatlab kelmoqda.

Faqat istisno tariqasida Fransiya qarshi bo'lgan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga faqat 70-yillarning o'rtalarida a'zo bo'lishga erishgan Buyuk Britaniya va YIning boshqa a'zolari kabi Parij ham inson huquqlarining jiddiy buzilishi va mamlakat siyosatida armiyaning haddan tashqari kata roli tufayli qator

⁷ <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/geos/ee.html>

yillar davomida YIga kirishga tayyor emas deya hisoblab kelingan Turkiyani kiritish mumkin.

Fransiya YI kengayishiga qulay shart – sharoit yaratishga solmoqli hissa qo'shmoqda. Yevropa Kengashining Parij rahbarlik qilgan 2000 yil ikkinchi yarmida YIning kengayishi va ayrim institutsional islohotlarni ko'zda tutuvchi Nissa shartnomasi imzolandi. Ushbu hujjatda nafaqat ittifoqning kengayishi bilan bog'liq masalalar, shuningdek, har bir davlatning manfaatlari alohida ko'rsatib o'tilgan.

YIning kelajakdagi ko'rinishi borasida Yevropa federatsiyasini qo'llab - quvvatlayotgan Germaniyadan farqli ravishda Fransiya teng huquqli davlatlar ittifoqi konfederatsiyani yoqlamoqda.

Ko'plab bahs – munozaralarga sabab bo'gan Markaziy va Sharqiy Yevropa (MSHY) davlatlarining YI bilan birlashishi g'oyasi 80 – yillarning oxirida payda bo'ldi.

1990 yil yanvar Dublinda bo'lib o'tgan tashqi ishlar vazirlari uchrashuvida birlashishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi.

1992 yil iyunda Lissabonda Yevropa Kengashining sammitida MSHY davlatlariga har tomonlama yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsada a'zolikning aniq tamoyil va kreteriyalari ishlab chiqilmadi. Lissabon sammitining asosiy yutug'i «integratsiyaning kengayishi va chuqurlashishi parallel olib borilishi, kengayish integratsiyaning chuqurlashishi darajasini pasaytirmasligi lozimligi» borasida qaror qabul qilindi.

O'sha davrdan boshlab, «o'n ikkilar» iqtisodiy jihatdan yuksalish pallasiga kirdi. 1993 yilga kelib ularning jahon savdo aylanmasidagi ulushi 20 foiz eksport va 19,2 foiz import bilan qayd etildi. 1994 yil Avstriya, Finlandiya, Shvetsiya YIga

teng huquqli a'zo bo'lib kirish iltimosnomalari bilan chiqishadilar va 1995 yil YIning teng huquqli a'zolariga aylanishadi⁸.

Integratsiyaning bu tahlit chuqurlashuvi uning muttasil kengayib borishiga zamin hozirladi. 1995 yil Avstriya, Shvetsiya va Finlandiya tashkilotga a'zo bo'lib kirdi. Bu davrga kelib, 15 ta katta-kichik davlatlarni birlashtirgan Yevropa Ittifoqi tashkiloti 3.234 ming kv.km hududni qamrab olib, mazkur hududda 370.9 mln. aholi istiqomat qilardi. Uning jahon bozoridagi eksporti umumiy miqdorning 20.2 foizi, importi esa 17.9 foizini tashkil etdi.

1997 yilgi Lyuksemburg sammiti YI ning bosqichma – bosqich kengayishi to'g'risida siyosiy qaror qabul qildi. Bundan tashqari doimiy harakatdagi siyosiy tavsiyalar ishlab chiquvchi forum tashkil etildi. O'sha yili Yevropa integratsiyasi jarayonida yana bir muhim qadam qo'yildi. YIda boshqaruvni yangi vujudga kelgan shart - sharoitlarga moslashtirish uchun Amsterdam shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomalar natijasida Yevropa Parlamentidagi deputatlar soni 700 tadan oshib ketmasligiga kelishib olindi. Shuningdek, Yevropa pul birligini joriy qilishda ayrim yutuqlarga erishish uchun Yevropa Markaziy Bankiga normativ aktlar chiqarish vakolati berildi. Shuningdek, Amsterdam shartnomasida YIga a'zo davlatlar zimmasiga birgalikda terrorizm, kontrabanda va jinoyatchilikga kurashda o'zaro hamkorlik munosabatlarni o'rnatish yuklangan.

Jahon iqtisodiyoti integratsiya, ya'ni yaqinlashuv yo'lidan bormoqda. Agar G'arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlarni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, u holda uning rivojlanishini bir qancha bosqichlarga bo'lish va ulardan ayrim elementlarini har bir bosqichda oyoqqa turganligini anglab olamiz:

- 1) Umumiy bozor va yagona savdo siyosati;
- 2) Yagona agrar siyosat;

⁸ <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/geos/ee.html>

- 3) Yevropa valyuta tizimi:
- 4) Ilmiy-texnikaviy integratsiya;
- 5) Siyosiy integratsiyaning elementlari.

Yevropa integratsiya jarayonining o'ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, tarixda kuzatilgan Yevropa davlatlari orasidagi tuzilgan harbiy ittifoqlardan farqli ravishda, ushbu jarayon natijasida dastlab iqtisodiy, hozirda esa siyosiy davlatlar ittifoqi vujudga kelgan. Tarixda Yevropa davlatlarining bir maqsad atrofida birlashishi ko'p kuzatilgan biroq bu turdagi keng ko'lamli integratsion birlashish aynan shu davrga kelib yuz berdi. Yevropadagi integratsion jarayonlar mahsuli bo'lmish Yevropa Ittifoqining Yevropada tinchlik va demokratiyani tarqatish yo'lida olib borgan sa'y-harakatlari 2012-yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlanish ham fikrimiz isbotidir⁹.

⁹ <http://www.britannica.com/EBchecked/topic/196399/European-Union-EU>

2-BOB. YEVROPA ITTIFOQI – XALQARO INTEGRATSIYANING OLIY SHAKLI

2.1. Yevropa ittifoqi strukturasi, faoliyati va jahon hamjamiyatida tutgan o'rni

Yevropa Ittifoqining jahon iqtisodiyotidagi o'rni alohida e'tiborga molik. Dunyoda ishlab chiqariladigan umumiy ichki mahsulotning 28 foizi Ittifoq hisobiga to'g'ri keladi. Uning jahon savdo aylanmasidagi eksport-import ulushi esa 20 foiz, ya'ni 4 011.357 mln. yevroga tengdir. Dunyodagi eng katta daromadga ega deb e'tirof etilgan 500 ta yirik kompaniyaning 161 tasi Yevropa Ittifoqida joylashgan¹⁰.

Ushbu xalqaro tashkilotning tashkil topish tarixi aslida 1947 yilda «Ko'mir va po'lat» konsernining tashkil topishidan boshlanadi. 1993 yilda Yevropa Ittifoqi nomini olgan tashkilot Maastrixt (Niderlandiya)da 12 ta davlatning rahbarlari imzolagan shartnomaga binoan vujudga kelgan federativ davlat xususiyatlarini o'zida birlashtirgan davlatlararo birlashmadir¹¹.

Yevropa Ittifoqining maqsad va vazifalari quyidagilardir:

1) Yevropa xalqlarining yaqin ittifoqini tashkil etish, muvozanatlashgan va uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish, bunda, ayniqsa, quyidagilardan foydalanish: ichki chegaralari bo'lmagan makonni yaratish; iqtisodiy va ijtimoiy xamkorlikni kuchaytirish; yagona valyutani joriy etish;

¹⁰ <http://www.old.uzbekistonovozi.uz/page-10003449.html>

¹¹ <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/geos/ee.html>

2) xalqaro soxada, ayniqsa, tashqi siyosatni va xavfsizlik soxasidagi siyosatni, kelajakda esa mudofaa siyosatini birgalikda yuritish orqali o'z moxiyatini tasdiqlash;

3) adliya va ichki ishlar soxalaridagi xamkorlikni rivojlantirish.

Keyingi 50 yil davomida beshinchi marta o'z safiga yangi a'zolari qabul qilgan bu tashkilot siyosiy, iqtisodiy, madaniy, xarbiy-texnik, ilmiy-texnologik xamkorlikning sifat jixatdan eng zamonaviy ko'rinishi bulib, xozirgi davrda 27 davlat uning a'zosidir. Yalpi ichki maxsulot ishlab chiqarishning jon boshiga 22 ming dollardan ortik kiymatni tashkil etayotganligi shubxasiz, bu xamkorlikning samarasidir. Xududi 4,2 million kv.km.ni, axolisi esa 455 milliondan ortiq kishini tashkil etgan bu xududda Buyuk Britaniya, Daniya va Shvetsiyani xisobga olmaganda 2002 yilning 1 yanvaridan buyon yagona pul birligi - yevro amal kilmoqda¹².

Yevropa Ittifoqining oliy ijrochi organlari - Yevropa Ittifoqi Kengashi, Yevroparlament va Yevrokomissiyadir. Yevropa Ittifoqi Kengashining 1996 yil iyunda Florensiyada (Italiya) bo'lib o'tgan yig'ilishida Prezident I. A. Karimov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi. Uchrashuv jarayonida «Uzbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi sherikchilik va xamkorlik to'g'risida»gi kelishuv imzolandi. Yevropa Ittifoqida erishilgan yuksak natijalar tajribasi davlatlararo boshqa tashkilotlar uchun xam, muayyan bir davlatning taraqqiyoti uchun xam foydadan xoli emas.

Shu bois, Prezident I. A. Karimov: «MDXning istikboli Yevropa Ittifoqi kabi modelning amalga oshirilishida kurinadi...Aynan shu model MDXni jonlantirishi, unga toza xavo berishi mumkin. Xamdo'stlikning xar bir a'zosi o'zining munosib o'rnini topa oladigan istiqbol - bu Yevropa Ittifoqi modeli asosida rivojlanish, deb o'ylayman.

Albatta, demokratiyani rivojlantirish va demokratik jamiyat qurish soxasida xam biz Yevropa Ittifoqi andozalarini qo'llashimiz kerak bo'ladi. Bu — mening qat'iy

¹² Одилкориёв Х.Т., Раззоков Д.Х. Сиёсатшунослик. Тошкент. 2007. 229-230-б.

fikrim. Yevropa Ittifoqiga xos demokratik qadriyatlar, inson tafakkuri, ta'lim tizimi, ijtimoiy kafolatlar, axolining ijtimoiy huquqlari — bularning barchasi biz uchun to'la mos keladi. Men ushbu tizimni ko'r-ko'rona ko'chirib olishni nazarda tutayotganim yo'q, albatta. Bizning o'z mentalitetimiz, o'z muammolarimiz bor va biz bu jixatlarni xisobga olamiz» deb ta'kidlaydi¹³.

Yagona Yevropa akti Vazirlar Kengashi qarorlarini qabul qilish tartibiga muxim o'zgartirishlar kiritdi. Yagona Yevropa Akti bilan yagona bozorni bunyod etishga taalluqli barcha muammolar bo'yicha ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilishga ruxsat etiladi.

Yangi shartnomaga muvofiq quyidagilar ta'sis etildi:

1) Yagona umumYevropa fuqaroligi: qatnashuvchi mamlakatlarning fuqarolari o'z-o'zidan Yevropa Ittifoqining fuqaroligini oladi.

2) Iqtisodiy va valyuta Ittifoqi: qatnashuvchi mamlakatlar va umuman xamjamiyat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari Vazirlar Kengashi tomonidan qabul qilinadi, u shuningdek, xar bir mamlakat va umuman xamjamiyat iqtisodiy rivojlanish jarayoni qanday borayotganligini kuzatadi. Yevropa valyuta Ittifoqining umumiy pul birligi joriy etilgan 1999 yil 1 yanvardan boshlab "yevro" deb nomlanuvchi pul birligi amalda yuritila boshlandi. 2000 yil 1-yanvardan boshlab ummiy pul kupyuralari chiqarish yo'lga qo'yildi. 2002 yil 1-yanvardan boshlab bu pul birliklari Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar milliy pul birliklari bilan parallel ravishda qo'llaniladi va 2002 yil 1-iyuldan boshlab esa milliy pul birliklari yo'qotilib, to'la xolda xisob-kitoblar "yevro"da amalga oshirila boshlaydi.

3) Siyosiy Ittifoq. U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

¹³ Каримов И. А. Узбек халки хеч қачон, хеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — Б. 366—367.

- Tashqi ishlar va xavfsizlik soxalarida yagona siyosat, umumiy mudofaa siyosatini ishlab chiqish, Yevropada qurolsizlanish va qurol-yaroqlarni nazorat qilish, yadro qurolini tarqatmaslik va xavfsizlikning iqtisodiy jixatlari ustida ish olib boorish;
- Yevroparlament moxiyatini kuchaytirish;
- Xamjamiyat vakolatlarini kengaytirish;
- Ichki ishlar va odil sudlov soxalarida, xususan boshpana berish, immigratsiya va viza tartibi kabi masalalarda yagona siyosat yuritish.

Yevropa Ittifoqi muvaffaqiyatlariga va uning yangi a'zolarini jalb qilish qobiliyatiga quyidagi uchta omil sababchi bo'lmoqda:

- O'zaro bir-biriga bog'liqlikni va xamkorlikni taqozo qiluvchi iqtisodiy asos;
- Huquqiy qoidalar tantanasi;
- Kelishuvlar va yon berishlarga asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonining demokratik xususiyati.

Yevropa Xamjamiyatini ta'sis etish to'g'risidagi Shartnomalarda belgilangan vazifalarni bajarish uchun bir qator Yevropa muassasalari tuzilgan.

Ulardan birinchisi - Yevropa Xamjamiyati Komissiyasi Yevropa Ittifoqining ijroiya organidir. Uning 17 a'zosini milliy xukumatlar tayinlaydi. Vakillar to'rt yilga tayinlanadi. Komissiyaning asosiy ishchi tillari fransuz, ingliz va nemis tillari bo'lsada, barcha rasmiy xujjatlar qolgan 9 tilga albatta tarjima qilinadi. Komissiya Xamjamiyatning turli fondlari va dasturlarini, jumladan, Yevropa Ittifoqida qatnashmaydigan mamlakatlarga yordam ko'rsatishga qaratilgan fondlar va dasturlarni xam boshqaradi¹⁴.

Vazirlar Kengashi - Bu qarorlar qabul qilish organidir; uning doirasida milliy xukumatlarning a'zolari muzokaralar o'tkazadilar. Vazirlar Kengashining lavozimini barcha qatshashuvchi mamlakatlarning vakillari navbatma-navbat

¹⁴ http://en.wikipedia.org/wiki/European_Commission

egallaydilar. Ularning xar biri bu lavozimda 6 oy turadi, rais vazifasini tashqi ishlar vazirlari bajaradilar.

Yevroparlament - Yevropa xalqlarining demokratik jarchisi xisoblanadi. Unda umumiy ovoz berish yo'li bilan saylanadigan 518 deputat bor. Asosiy vazifasi - Komissiya faoliyatini nazorat qilish, Hamjamiyat byudjeti va qonunlarini maq'ullash va ularga o'zgartirishlar kiritish. Yevroparlament a'zolari 5 yilga bir marta saylanadilar¹⁵.

Yevropa sudi - Hamjamiyatning boshqa xalqaro tashkilotlaridan farqi shundaki, YI ga a'zo mamlakatlar imzolagan shartnomalarni ijro etish ular uchun majburiy ekanligidir. Yevropa sudi 13 sudyadan, shu jumladan, xar bir mamlakatdan bittadan va bosh advokatlardan iborat. Sudyalar 6 yil muddatga saylanadilar. Yevropa sudining mavjudligi YI qonunchiligining qatnashuvchi mamlakatlar tomonidan noto'g'ri talqin etilishining oldini oladi¹⁶.

Yevropa kengashi - 1974 yilda tuzildi. Yevropa Kengashi oliy bosqich axamiyatni kasb etib, murakkab xollarda, Hamjamiyatning boshqa muassasalari bilan kelishishga erishishning iloji bo'lmagan xolatlarda YeIK va Vazirlar Kengashi unga murojaat etishlari mumkin¹⁷.

2.2 Yevropa ittifoqi-O'zbekiston munosabatlari

O'zida 27 ta davlatni birlashtirgan, aholisi jihatidan Xitoy va Hindistondan keyingi uchinchi, yer maydoni jihatidan esa, dunyodagi yettinchi o'rinda bo'lgan Yevropa Ittifoqi tashkiloti va uning a'zo davlatlari bilan ko'p tomonlama va ikki

¹⁵ http://en.wikipedia.org/wiki/European_Parliament

¹⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa_Ittifoqi

¹⁷ General Secretariat of the Council of the EU. November 2009. P.1-2.

tomonlarga aloqalar mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Birinchidan, Yevropa Ittifoqining ilg'or davlatlari (Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya) O'zbekiston uchun yuqori texnologiyalar manbaidir. Samolyotsozlik, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, qurilish va umuman, ishlab chiqarishning barcha sohalariga eng zamonaviy G'arb texnologiyalarini jalb etish respublikamizda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, Yevropa Ittifoqi o'zining barcha a'zo davlatlari bilan bir butunlikda O'zbekistonning tayyor va xomashyo mahsulotlari uchun MDHdan keyingi eng katta iste'mol bozorini tashkil qiladi¹⁸.

Shuningdek, G'arbiy Yevropa savdo-sotiq sohasida mamlakatimizning eng asosiy hamkori bo'lib qolmasdan sarmoyalarning asosiy manbaidir. Mustaqillikdan keyingi dastlabki yillardayoq, xorijiy Yevropa sarmoyalari mamlakatimizga jalb etish masalasiga katta e'tibor qaratilib, ular uchun qulay investitsiyaviy iqlim yaratib kelinmoqda.

Hamkorligimizning yana bir muhim jihati — bu mintaqaviy va global xavfsizlikni saqlash hamda ta'minlash masalasi bilan bog'liq. Xalqaro terrorizm, narkobiznes, ekstremizm va boshqa ko'rinishdagi transmilliy tahdidlarga qarshi kurash va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdan har ikki tomon birdek manfaatdor.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan ikki tomonlarga muloqoti faol xarakterga ega bo'lib, u 5 asosiy qo'shma organ doirasida amalga oshirilmoqda: Hamkorlik kengashi, Hamkorlik qo'mitasi, Parlament hamkorligi qo'mitasi, Savdo

¹⁸ <http://www.uzbekistonovozi.uz/page-10003449.html>

va investitsiyalar bo'yicha quyi qo'mita hamda Adliya, ichki ishlar va boshqa masalalar bo'yicha quyi qo'mita.

Hozirgi kunga qadar Hamkorlik Kengashining 9 ta yig'ilishi (oxirgisi 2009 yil sentyabrda Bryusselda), Hamkorlik qo'mitasining 8 ta yig'ilishi (oxirgisi 2010 yil iyulda Toshkentda), Parlament hamkorlik qo'mitasi 8 ta yig'ilishi (2010 yil oktyabr, Toshkent), Savdo va investitsiyalar bo'yicha Kichik qo'mita 7 ta yig'ilishi, Adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va boshqa turdosh masalalar bo'yicha Kichik qo'mita 7 ta yig'ilishi (2010 yil may, Bryussel) o'tkazildi¹⁹.

O'zbekiston bilan keng jabhali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish Yevropa Ittifoqi va uning a'zo davlatlari uchun ham ayni muddaodir. Xususan, Yevropa Ittifoqi Komissiyasi o'zining 1995 yilda qabul qilingan «Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlari bilan aloqalar to'g'risida Kommunikatsiya»sida bu haqda alohida to'xtalib o'tadi. Kommunikatsiyada «Ittifoq Markaziy Osiyoda muhim manfaatlarga ega. Bu manfaatlar ham iqtisodiy, ham geosiyosiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mazkur mintaqani xizmatlar, turli jihozlar va sarmoya bilan ta'minlab turuvchi Yevropa Ittifoqi, ayni vaqtda, mintaqadan chiquvchi energetika mahsulotlarining sezilarli imkoniyatlarga ega bo'lgan iste'molchisi ham ekanligidan kelib chiqib, bu hududda energetika sektorining rivojlanishidan alohida manfaatdorligi» qayd etiladi. Keyinchalik Yevropa Ittifoqi Kengashi tomonidan 2007 yilning 30 mayida qabul qilingan «Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo: Yangi sherikchilik uchun strategiya» deb nomlangan hujjatda Yevropa Ittifoqining mintaqadagi strategik manfaatlari yanada yaqqol ifoda etilgan.

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston munosabatlari ana shunday o'zaro teng manfaatdorlik asosida qaror topdi. 1991 yil 31 dekabrda «O'n ikkilarning qo'shma deklaratsiyasi» bilan Yevropa hamjamiyatlari va ularning o'sha paytdagi 12 ta a'zo

¹⁹ http://mfa.uz/uzb/xalqaro_munosabatlar/xalqaro_tashkilotlar/ozb_yevropa_ittifoqi/

davlati O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini e'tirof etdi. 1992 yil 15 aprelda O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Yevropa hamjamiyatlari Komissiyasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi. 1994 yil 16 noyabrda tomonlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasining Yevropa hamjamiyatlari qoshidagi Missiyasi 1995 yil 6 maydan e'tiboran Bryussel shahrida o'z faoliyatini boshladi. 2002 yil oktyabrda esa Yevropa Ittifoqi Komissiyasining mamlakatimizdagi faoliyatini amalga oshirish va boshqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida Yevropa hamjamiyatlarining O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonasi vazifasini vaqtincha bajarib turuvchi «Yevropa Uyi» Toshkentda o'z faoliyatini boshladi²⁰.

O'tgan yillar davomida o'zaro aloqalarning shartnomaviy-huquqiy asoslari ham shakllanib va mustahkamlanib bordi.

1996 yil 21 iyunda Florensiyaning (Italiya) «Fortezza de Basso» qal'asida bo'lib o'tgan Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlarining davlat va hukumat rahbarlari darajasidagi navbatdagi oliy sammitida Yevropa hamjamiyatlari va ularning a'zo davlatlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida «O'zbekiston Respublikasi, bir tomondan, va Yevropa Hamjamiyatlari hamda ularga a'zo davlatlar, ikkinchi tomondan, o'rtasida sherikchilik ta'sis etuvchi Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim» imzolandi. Bitimni imzolash chog'ida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ushbu shartnoma Yevropa Ittifoqi va mustaqil O'zbekiston munosabatlarida yangi burilish nuqtasi bo'lib xizmat qilishini hamda yosh davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochishini ta'kidladi: «Biz bu munosabatlarga tashqi siyosatimizning mamlakatimizning jahon hamjamiyati va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuviga qaratilgan ustivor yo'nalishi deb qaraymiz»²¹.

²⁰ <http://www.old.uzbekistonovozi.uz/page-10003449.html>

²¹ I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T. 5. – T., 1997. – B.3.

Hozirgi kunda Sheriklik va hamkorlik bitimi Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasida imzolangan o'nga yaqin boshqa bitimlar bilan birgalikda amal qilib kelmoqda.

2001 yil 11 sentyabr voqealaridan so'ng ikki tomonlama munosabatlar rivoji, ayniqsa, yangicha tus oldi. Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoning strategik ahamiyati va mintaqadagi barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistonning hal qiluvchi mavqeini tushunib yetdi. Shundan kelib chiqqan holda, 2001 yilning 8-9 va 17 oktyabrida bo'lib o'tgan Yevropa Ittifoqining Lyuksemburg Kengashi va 19 oktyabridagi Gent sammiti tashkilotning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini kuchaytirishni zarur deb topdi. 2001 yil 11 sentyabr voqealaridan keyin Yevropa Ittifoqi davlatlari ham xalqaro terrorizmga qarshi tuzilgan xalqaro koalitsiyaga qo'shilgan holda o'z qo'shinlarini Afg'onistonga yuborishdi. Ayrim davlatlar, shu jumladan, Germaniya o'z harbiy kontingentini Afg'onistonning shimolida, bir qismini esa Termiz shahrida joylashtirdi²².

2002 yil 29 yanvarda Bryussel shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston — Yevropa Ittifoqi Hamkorlik kengashining uchinchi majlisida Markaziy Osiyo davlatlariga qaratilgan TESIS dasturining byudjeti 25 mln.dan 50 mln.ga, ya'ni ikki hissaga ko'paytirilganligi tashkilot vakillari tomonidan rasman ma'lum qilindi²³. Shuningdek, bu majlisda mintaqa mamlakatlari, ayniqsa, O'zbekiston bilan aloqalarga ustuvor mavqe berish, siyosiy, transport, energetika, savdo, investitsiya sohalaridagi hamkorlikni yanada kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Ikki tomonlama munosabatlarda iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalari eng ustuvor yo'nalish hisoblanadi. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi va uning a'zo davlatlari bilan savdo aloqalari katta salmoqni tashkil etadi.

²² Tinchlik ta'limi va madaniyatlararo hamjihatlik markazi. Zamonaviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma.. —T: JIDU. 2008. — B. 245

²³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa_Ittifoqi

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan aloqalari iqtisodiyot sohasida ham yildan-yilga kengayib bormoqda. Yevropa Ittifoqining faol a'zolaridan bo'lgan Germaniya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi eng yaqin hamkori hisoblanadi. Germaniya Markaziy Osiyoda ro'y berayotgan o'zgarishlarga doimo nemislarga xos xolislik bilan yondashgan va doimo qo'llab-quvvatlagan²⁴.

Ikki tomonlama savdo aloqalarining umumiy hajmi 1993 yilda 545 mln., 2006 yilda 1.1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 1 mlrd. 759 mln. AQSh dollariga yetdi. Undagi Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya kabi yirik davlatlarning salmoqli ulushi saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, Kipr, Chexiya, Sloveniya, Estoniya, Polsha kabi Yevropa Ittifoqi yangi a'zo davlatlarining ulushi ortib borayotganligi quvonarli holatdir. Yevropa eksporti mahsulotlarining asosiy qismini elektr jihozlari va mashinalar, qishloq xo'jaligi va plastik materiallar tashkil etsa, O'zbekiston eksportining katta ulushi to'qimachilik mahsulotlari va qimmatbaho metallardan iborat.

Qisqacha qilib aytganda, O'zbekiston — Yevropa Ittifoqi iqtisodiy va savdo munosabatlari bir maromda rivojlanib kelmoqda. Tomonlar orasidagi tovar ayirboshlash hajmi o'tgan 20 yil ichida salkam to'rt barobarga ko'paydi. Biroq ikki tomonlama savdo aloqalarining imkoniyatlari cheksizdir.

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston aloqalari mintaqalararo miqyosda ham rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Yevropa Ittifoqining BOMKA (Chegara hududlarida xavfsizlikni ta'minlash), KADAP (giyohvand moddalarga qarshi kurashish), TRASYeKA (transport), INOGYeYT (energetika), TYeMPUS (ta'lim), INTAS (fan va tadqiqot) kabi mintaqaviy dasturlarda ishtirok etmoqda.

Mamlakatimizdagi barqaror siyosiy va iqtisodiy rivojlanish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi birdamlik va yangi marralar, global va mintaqaviy muammolarni hal etish yo'lidagi davlatimiz rahbarining aniq va dadil

²⁴ Tinchlik ta'limi va madaniyatlararo hamjihatlik markazi. Zamonaviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma.. —T: JIDU. 2008. — B. 246

tashabbuslari, umuman, qo'lga kiritilayotgan barcha muvaffaqiyatlarimiz Yevropalik hamkorlarimizning bundan o'n yil avvalgi qarashlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Global va mintaqaviy muammolarni hal etishda tomonlarning o'zaro anglashuv va tushunish asnosidagi qarashlari tobora yaqinlashib bormoqda.

Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida Yevropa Ittifoqi 2010 yilning iyun oyida Qirg'iziston janubida ro'y bergan voqealarga munosabat bildirib, 2010 yil 25 oktyabrda bo'lib o'tgan Yevropa Ittifoqi Tashqi ishlar bo'yicha kengashining 3041-majlisida O'zbekiston Hukumatining g'oyat vazmin va oqilona yondashuvini yuqori baholadi. Davlatimiz rahbarining jahon hamjamiyatiga yo'llagan chaqiriqlariga javoban, Ittifoqning Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha oliy vakili Ketrin Eshton 2010 yil 18 dekabrda Bryusseldagi o'z bayonotida Qirg'izistondagi demokratik islohotlar uchun Ittifoqning tayyorligini bildirdi. Uchrashuv chog'ida J.Barrozo O'zbekiston Hukumatining Qirg'iziston janubidagi mojarolarni butun mintaq bo'ylab yoyilishini oldini olishga qaratilgan va uzoqni ko'zlagan siyosatini yana bir bor alohida e'tirof etdi²⁵.

Yevropa Ittifoqi Orol fojiasi, Orolbo'yi mintaqasining ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarga nisbatan hamda Orol dengizining hayotbaxsh manbalari — Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan oqilona foydalanish, jumladan, gigant GESlar o'rniga tejamkor va ixcham energiya manbai qurish taklifini ilgari surayotgan O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining rasmiy munosabatiga o'z xayrixohligini bildirib kelmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Per Morel 2010 yil 1 noyabrda «Deutsche Welle» gazetasida bergan suhbatida Rog'un GESining qurilishi loyihasi bo'yicha xalqaro ekspertiza o'tkazishni yoqlab chiqdi va mazkur vazifani o'z zimmasiga olgan Jahon bankiga yordam berishga Ittifoqning tayyorligini bildirdi. Shuningdek, «Biz bilamizki, — dedi u, — Qirg'iziston janubida sodir etilgan qonli voqealarda

²⁵ <http://www.uzbekistonovozi.uz/page-10003449.html>

jinoyat izi bor va unda narkobiznes ma'lum darajada rol o'ynagan. ...Ushbu voqeani ob'ektiv o'rganish — ustuvor vazifa. Men Kimmo Kilyunen rahbarligidagi xalqaro tekshiruv komissiyasining ish boshlaganini olqishlayman». Ko'rinib turganidek, bu borada ham Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston qarashlari hamohangdir²⁶.

2011 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Bryusselga tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif doirasida Yevropa Komissiyasi prezidenti J.M.Barrozo va Yevropa Ittifoqining energetika masalalari bo'yicha komissari G.Ettinger bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Shuningdek O'zbekistonda YI diplomatik vakolatxonasini (Delegatsiyasini) ta'sis etish to'g'risidagi Kelishuv, O'zbekiston Respublikasi va YI o'rtasida energetika sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi Bayonnoma hamda 2011-2013 yillarda Yevropa Komissiyasi texnik ko'magi Indikativ dasturini amalga oshirish to'g'risidagi Bayonnoma imzolandi²⁷. Natijada 2012-yil may oyida YIning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari lavozimi joriy etildi²⁸.

Global va mintaqaviy xavfsizlik tizimining eng zaif nuqtasi bo'lib qolayotgan Afg'onistonda tinchlik o'rnatish va barqaror taraqqiyotga yo'l ochish borasida ham manfaatlar uyg'unligi va o'zaro izchil hamkorlikni kuchaytirish istagi yaqqol namoyon bo'lmoqda. «Nezavisimaya gazeta»ning 2009 yil 10 yanvar sonida e'lon qilingan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Per Morelning intervyusida ta'kidlanganidek, «Afg'oniston haqida o'ylaganda darhol gap Eron yoki Pokiston haqida ketadi, biroq uning shimoliy qo'shnilari O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston haqida ozroq gapiramiz. Biz barchamiz Afg'onistonda hal qilishimiz lozim bo'lgan murakkab vazifa qarshisida turibmiz va bu masalada o'zaro maslahatlashuvlarimizni rivojlantirib kelmoqdamiz. Bunda

²⁶ <http://www.uzbekistonovozi.uz/page-10003449.html>

²⁷ http://mfa.uz/uzb/xalqaro_munosabatlar/xalqaro_tashkilotlar/ozb_vevropa_ittifoqi/

²⁸ Sh.E.Ziyoyev. "Yevropa ittifoqining Markaziy Osiyo bilan siyosiy aloqalariga doir ayrim yondashuvlar xususida". Jahon siyosatining dolzarb muammolari: an'anaviy ilmiy maqolalar to'plami: №2, 2013. B.61.

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy muloqotlari muhim omildir». Eslatib o'tish joizki, Yevropa Ittifoqi Afg'onistonda tinchlik o'rnatish va mamlakat iqtisodiyotini tiklash ishiga eng katta ulush qo'shayotgan homiy tashkilotdir. U 2010 yilda bo'lib o'tgan Afg'on muammosiga bag'ishlangan Kobul va London xalqaro konferensiyalarining tashkilotchisi sifatida maydonga chiqdi. 2002 yildan beri Ittifoqning Afg'onistonga ajratgan insonparvarlik va iqtisodiy yordami qariyb 1 mlrd. 800 mln. yevroni tashkil etdi²⁹. Afg'onistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan chegaralarini mustahkamlash orqali Yevropa Ittifoqi mintaqamiz xavfsizligini ta'minlashga hissa qo'shib kelmoqda. O'z navbatida, O'zbekiston Afg'onistonda tezroq tinchlik va barqarorlik o'rnatish istagini bildiribgina qolmay, ushbu mamlakatga xalqaro insonparvarlik yordamini yetkazib berish va milliy iqtisodini tiklash ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Shu bois, Yevropa Ittifoqining nufuzli siyosiy arbobi Afg'oniston iqtisodi va infratuzilmalarini tiklash borasida O'zbekiston ilgari surayotgan aniq taklif va loyihalar hamda amaliy sa'y-harakatlar uchun mamlakatimiz Prezidentiga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Shunday bo'lsa-da, ushbu memorandum va tashrif chog'ida imzolangan boshqa hujjatlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining energetika manbalariga bo'lgan hayotiy ehtiyojini qondirishgagina xizmat qilib qolmay, balki bugungi kunda Yevropaliklar tomonidan «qo'shnilarimizning qo'shnilari» deb atalayotgan Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston bilan o'zaro teng va manfaatli hamkorlik aloqalarining rivojiga yanada kengroq ko'lam va turtki beradi.

²⁹ <http://www.old.uzbekistonovozi.uz/page-10003449.html>

XULOSA

Mazkur kurs ishida Yevropada integratsion jarayonlarning tarixi, asosiy bosqichlari va istiqbollarini o'rganish, Yevropa Ittifoqining tuzilish tarixi va sabablari hamda uning bugungi kundagi faoliyati, shu bilan birga Yevropa Ittifoqi-O'zbekiston aloqalarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga kelindi:

Birinchidan, Yevropada integratsion jarayonlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, jadalligi bo'yicha dunyoda eng samarali integratsiyalashuvga erishayotgan mintaqa hisoblanadi;

Ikkinchidan, tahlillar va izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Yevropada integratsion jarayonlar nihoyalanishga erishmoqda va "Yagona Yevropa" g'oyasi amalga oshishi istiqbolli rejalar asosida kutilayotgan real hodisaga aylanmoqda;

Uchinchidan, mintaqaning institutsional ko'rinishi – Yevropa Ittifoqi xalqaro munosabatlarda Yevropa nomidan faoliyat olib boruvchi asosiy aktor sifatida maydonga chiqmoqda;

To'rtinchidan, Yevropa Ittifoqining faoliyat doirasi kengayib bormoqda va xalqaro va mintaqaviy jarayonlarning turli masalalarida hal qiluvchi va o'z ta'sir doirasiga ega tashkilot sifatida baholanmoqda.

Qisqacha aytganda, Yevropa integratsion jarayonlarga tortilish orqali umummintaqaviy birlikka erishishga intilmoqda va turli to'siq va muammolarga qaramasdan buni muvaffaqiyatli uddalab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

- 1.1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. – Toshkent. “O'zbekiston”. 1996.
- 1.2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi .T.9. Тошкент. “Ўзбекистон”.2001.
- 1.3. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – Toshkent. “O'zbekiston”. 2005.

Normativ-huquqiy hujjatlar

- 2.1. Yevropa Ittifoqi Rim shartnomasi. 1957.
- 2.2. Yevropa Ittifoqi Maastricht shartnomasi. 1992.
- 2.3. Yevropa Ittifoqi Lissabon shartnomasi. 2004.

Ilmiy va maxsus adabiyotlar

- 3.1. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. Тошкент. 2007.
- 3.2. Introduction to European Union. Booklet.
- 3.3. General Secretariat of the Council of the EU. Brussel. November , 2009.
- 3.4. Tinchlik ta'limi va madaniyatlararo hamjihatlik markazi. Zamonaviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma.. –T: JIDU. 2008.
- 3.5. Sh.E.Ziyoyev. ”Yevropa ittifoqining Markaziy Osiyo bilan siyosiy aloqalariga doir ayrim yondashuvlar xususida”. Jahon siyosatining dolzarb muammolari: an'anaviy ilmiy maqolalar to'plami: №2, 2013.

Internetning axborot va analitik manbalari

- 4.1. <http://uz.denemetr.com/docs/134/index-21111-1.html?page=4>

- 4.2. http://europa.eu/about-eu/basic-information/index_en.htm
- 4.3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa_Ittifoqi
- 4.4 https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_integratsiya
- 4.5. <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/geos/ee.html>
- 4.6. <http://www.britannica.com/EBchecked/topic/196399/European-Union-EU>
- 4.7. <http://www.old.uzbekistonovozi.uz/page-10003449.html>
- 4.8 http://en.wikipedia.org/wiki/European_Commission
- 4.9. http://en.wikipedia.org/wiki/European_Parliament
- 4.10. http://mfa.uz/uzb/xalqaro_munosabatlar/xalqaro_tashkilotlar/ozb_yevropa_itti_foqi/

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti, Jahon siyosati va tarixi fakulteti, 3-kurs
ingliz-urdu guruhi talabasi Ikromov Muhammadjon Shuhratjon o'g'lining
“Yevropada integratsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari” nomli kurs
ishisiga

T A Q R I Z

3-kurs talabasi Ikromov Muhammadjon Shuhratjon o'g'lining “Yevropada integratsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari” nomli kurs ishisi bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri hisoblangan Yevropa integratsion jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Kurs ishining birinchi bobida Yevropada integratsion jarayonlarning yaratilish tarixi va uning bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan bo'lsa, ikkinchi bobida . Yevropa ittifoqi strukturasi, faoliyati va jahon hamjamiyatida tutgan o'rni hamda Yevropa ittifoqi-O'zbekiston munosabatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Kurs ishidan ko'zlangan maqsad, Yevropada integratsion jarayonlarning yaratilish tarixi, Yevropa ittifoqi va uning bugungi kundagi ahamiyatining nazariy jihatlarini o'rganishdan iborat. Ushbu kurs ishini yozishda Prezidentimiz I.A. Karimov asarlari hamda ko'plab xorijiy adabiyotlar va birlamchi internet saytlaridan foydalanilgan. Ushbu kurs ishini yoqlashga ruhsat etilishi maqsadga muvofiqdir.

Taqrizchi Bito'rayev O'.

